



# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*


*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 38,0 mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 31,6 mingta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 90,4 foizni (jumladan, kichik korxona va mikrofirmalar 88,2 foiz) tashkil etdi.


*Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar  
fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda.*




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko‘ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Boshqa turlar

2024- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 541 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar 660 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida




2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish





Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni so'ngi besh yilda (37 200 ta) 830 taga ko'payganni quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli ko'paygani bilan ifodalash mumkin: savdo – 9 986 tadan 12 992 taga (o'sish 3 006 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 847 tadan 1 231 taga (o'sish 384 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 1 765 tadan 2 056 taga (o'sish 291 ta).

## Hududlar kesimida




## 2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda.

2024- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 245 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 227 ta;
- yirik korxonalar 18 tani tashkil etdi.

## Hududlar kesimida




2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda


## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish





Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- iyul holatiga 31,8 mingtaga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 foizni tashkil etdi (449 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 40,8 foiz, sanoat – 20,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 4,1 foiz, qurilish – 7,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,4 foiz, tashish va saqlash – 4,4 foiz, axborot va aloqa – 1,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,3 foiz, boshqa turlari – 10,8 foiz.

## Hududlar kesimida




2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2024- yil yanvar-iyun oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2020-yilning mos davriga nisbatan 1 114 tadan 1 447 taga (o'sish 333 taga), yashash va ovqatlanish – 80 tadan 200 taga (o'sish 120 taga) ko'paydi.

## Hududlar kesimida




2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa


Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Farg'ona shahrida (16,6 foiz), Qo'qon shahri (10,4 foiz), Marg'ilon shahri (8,0 foiz), Oltiariq (6,1 foiz) va Uchko'priq (5,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida

|                    |     |
|--------------------|-----|
| So'x tumani        | 127 |
| Farg'ona shahar    | 103 |
| Qo'shtepa tumani   | 102 |
| Farg'ona tumani    | 101 |
| Yozyovon tumani    | 93  |
| Dang'ara tumani    | 91  |
| Oltiariq tumani    | 89  |
| Toshloq tumani     | 86  |
| Quvasoy shahar     | 73  |
| Bag'dod tumani     | 71  |
| Quva tumani        | 69  |
| Beshariq tumani    | 64  |
| Buvayda tumani     | 57  |
| O'zbekiston tumani | 49  |
| Uchko'prik tumani  | 46  |
| Rishton tumani     | 43  |
| Furqat tumani      | 35  |
| Qo'qon shahar      | 30  |
| Marg'ilon shahar   | 24  |




O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot

yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

### Baliq ovlash va akvakultura




O'rmonchilik va yog'och  
tayyorlash

Dehqonchilik va  
chorvachilik, ovchilik va  
bu sohalarda xizmat  
ko'rsatish

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda


**Hududlar kesimida**

|                    |     |
|--------------------|-----|
| Qo'qon shahar      | 758 |
| Farg'ona shahar    | 720 |
| Marg'ilon shahar   | 592 |
| Uchko'prik tumani  | 491 |
| O'zbekiston tumani | 396 |
| Dang'ara tumani    | 371 |
| Rishton tumani     | 347 |
| Bag'dod tumani     | 329 |
| Oltiariq tumani    | 308 |
| Quva tumani        | 293 |
| Toshloq tumani     | 282 |
| Buvayda tumani     | 272 |
| Qo'shtepa tumani   | 266 |
| Farg'ona tumani    | 257 |
| Yozyovon tumani    | 199 |
| So'x tumani        | 199 |
| Quvasoy shahar     | 190 |
| Beshariq tumani    | 187 |
| Furqat tumani      | 163 |



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. 2020-yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 82,9 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 17,4 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,8 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yil ning mos davriga nisbatan o'sish 80,8 foiz), 2,7 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 89,4 foiz), 0,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 78,1 foiz) va 1,6 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 109,2 foiz) tashki etgan.



2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

|                    |     |
|--------------------|-----|
| Farg'ona shahar    | 636 |
| Qo'qon shahar      | 195 |
| Marg'ilon shahar   | 172 |
| Uchko'prik tumani  | 132 |
| Oltiariq tumani    | 121 |
| Toshloq tumani     | 116 |
| Bag'dod tumani     | 108 |
| Farg'ona tumani    | 108 |
| Quva tumani        | 96  |
| Yozyovon tumani    | 90  |
| Rishton tumani     | 89  |
| Quvasoy shahar     | 79  |
| Dang'ara tumani    | 77  |
| Qo'shtepa tumani   | 74  |
| Buvayda tumani     | 70  |
| So'x tumani        | 70  |
| O'zbekiston tumani | 64  |
| Beshariq tumani    | 56  |
| Furqat tumani      | 53  |

2 406

2024

2 889

2023

3 771

2022

3 458

2021

3 047

2020

O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 50,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 77,6 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,9 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,8 foiz ulushni va 83,3 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.


457

Fuqarolik  
obyektlarini qurish

740

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari


1 209

Bino va  
inshootlar qurish

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

|                    |       |
|--------------------|-------|
| Farg'ona shahar    | 1 747 |
| Qo'qon shahar      | 1 444 |
| Marg'ilon shahar   | 1 100 |
| Uchko'prik tumani  | 717   |
| Oltiariq tumani    | 686   |
| Farg'ona tumani    | 636   |
| Toshloq tumani     | 630   |
| Dang'ara tumani    | 610   |
| Buvayda tumani     | 582   |
| Quva tumani        | 580   |
| O'zbekiston tumani | 579   |
| Quvasoy shahar     | 567   |
| Qo'shtepa tumani   | 530   |
| Rishton tumani     | 470   |
| Beshariq tumani    | 458   |
| Bag'dod tumani     | 443   |
| So'x tumani        | 434   |
| Yozyovon tumani    | 395   |
| Furqat tumani      | 384   |



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 12 945 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 58,0 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 90,1 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 32,3 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 93,6 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 94,9 foizni tashkil etdi.

1 255

Avtomobil  
va mototsikllarning  
ulgurji va chakana  
savdosi va ularni  
ta'mirlash

4 202

Avtomobil  
va mototsikllar  
savdosidan tashqari  
ulgurji savdo


7 535

Avtomobil  
va mototsikllar  
savdosidan tashqari  
chakana savdo

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

|                    |     |
|--------------------|-----|
| Farg'ona shahar    | 500 |
| Qo'qon shahar      | 169 |
| Oltiariq tumani    | 140 |
| Rishton tumani     | 136 |
| Marg'ilon shahar   | 114 |
| Quva tumani        | 101 |
| Farg'ona tumani    | 98  |
| Bag'dod tumani     | 96  |
| O'zbekiston tumani | 94  |
| Quvasoy shahar     | 90  |
| Qo'shtepa tumani   | 82  |
| Toshloq tumani     | 78  |
| Dang'ara tumani    | 78  |
| Uchko'prik tumani  | 59  |
| Buvayda tumani     | 55  |
| Furqat tumani      | 53  |
| Beshariq tumani    | 46  |
| Yozyovon tumani    | 35  |
| So'x tumani        | 32  |



2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 116,5 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 6,2 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,8 foiz ulushini tashkil etdi.

**127**

Yashash bo'yicha xizmatlar

**1 929**


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


|                    |     |
|--------------------|-----|
| Farg'ona shahar    | 202 |
| Qo'qon shahar      | 57  |
| Marg'ilon shahar   | 53  |
| Buvayda tumani     | 40  |
| Oltiariq tumani    | 38  |
| Rishton tumani     | 33  |
| Quva tumani        | 29  |
| Toshloq tumani     | 25  |
| Qo'shtepa tumani   | 20  |
| Bag'dod tumani     | 16  |
| Uchko'prik tumani  | 13  |
| O'zbekiston tumani | 12  |
| Quvasoy shahar     | 12  |
| Beshariq tumani    | 12  |
| Farg'ona tumani    | 11  |
| Dang'ara tumani    | 9   |
| So'x tumani        | 8   |
| Furqat tumani      | 7   |
| Yozyovon tumani    | 4   |



2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 16,6 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 83,3 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 41,4 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 54,4 foizni tashkil etdi,


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 42,0 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 84,0 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- iyul holatiga koʻra, birlikda

### Hududlar kesimida

|                    |     |
|--------------------|-----|
| Fargʻona shahar    | 278 |
| Qoʻqon shahar      | 141 |
| Margʻilon shahar   | 75  |
| Fargʻona tumani    | 73  |
| Buvayda tumani     | 60  |
| Oltiariq tumani    | 60  |
| Oʻzbekiston tumani | 56  |
| Beshariq tumani    | 56  |
| Toshloq tumani     | 55  |
| Quva tumani        | 54  |
| Uchkoʻprik tumani  | 54  |
| Qoʻsh tepa tumani  | 48  |
| Rishton tumani     | 41  |
| Dangʻara tumani    | 40  |
| Bagʻdod tumani     | 36  |
| Furqat tumani      | 32  |
| Soʻx tumani        | 31  |
| Yozyovon tumani    | 25  |
| Quvasoy shahar     | 16  |




Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 051 ta yoki 85,4 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

91,5 foiz korxonalar sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri kelib, oʻsish surʼati 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,3 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 3,4 foizni tashkil etib, oʻsish surʼati 113,5 foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 5,1 foizini tashkil etib, oʻsish surʼati 95,5 foizni tashkil etdi;



2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

|                    |     |
|--------------------|-----|
| Oltiariq tumani    | 337 |
| Farg'ona shahar    | 244 |
| Qo'qon shahar      | 156 |
| Marg'ilon shahar   | 85  |
| Toshloq tumani     | 65  |
| Farg'ona tumani    | 55  |
| O'zbekiston tumani | 55  |
| Quvasoy shahar     | 52  |
| Quva tumani        | 49  |
| Beshariq tumani    | 45  |
| Uchko'prik tumani  | 43  |
| Dang'ara tumani    | 42  |
| Qo'shtepa tumani   | 34  |
| Rishton tumani     | 31  |
| Buvayda tumani     | 30  |
| Bag'dod tumani     | 26  |
| Furqat tumani      | 25  |
| So'x tumani        | 24  |
| Yozyovon tumani    | 23  |



2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,7 foiz ulushini tashkil etdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o'sish sur'ati 89,5 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 93,8 foizni;

pochta va kuryerlik yo'nalishi 85,7 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 1 tani tashkil etdi;




### Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

2024- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik  
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'liydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Hududlar kesimida

|                   |     |        |
|-------------------|-----|--------|
| Farg'ona shahar   | 424 | 11,3 % |
| Qo'qon shahar     | 257 | 9,3 %  |
| Marg'ilon shahar  | 167 | 8,9 %  |
| Qo'shtepa tumani  | 151 | 16,4 % |
| Oltiariq tumani   | 128 | 12,2 % |
| Yozyovon tumani   | 125 | 18,1 % |
| Quvasoy shahar    | 124 | 15,9 % |
| Uchko'prik tumani | 118 | 10,9 % |
| Quva tumani       | 112 | 13,1 % |
| Toshloq tumani    | 111 | 10,6 % |


|                    |     |        |
|--------------------|-----|--------|
| Buvayda tumani     | 110 | 14,5 % |
| Farg'ona tumani    | 103 | 12,7 % |
| O'zbekiston tumani | 100 | 10,4 % |
| Beshariq tumani    | 95  | 15,9 % |
| Dang'ara tumani    | 91  | 9,2 %  |
| Rishton tumani     | 79  | 17,8 % |
| Bag'dod tumani     | 77  | 14,9 % |
| Furqat tumani      | 60  | 13,6 % |
| So'x tumani        | 41  | 10,3 % |

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



853

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



8 638

Savdo



449

Axborot va aloqa



3 822

Sanoat



1 239

Tashish va saqlash



677

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

1 989

Qurilish



806

Yashash va ovqatlanish



2 289

Boshqa turlar

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 31,8 mingta tijorat korxona va tashkilotlarining 20,8 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar viloyatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda – 115,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 105,9 foiz, savdoda – 96,3 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida

Farg'ona shahar 3 767

Qo'qon shahar 2 767

Marg'ilon shahar 1 884

Uchko'prik tumani 1 086

Oltiariq tumani 1 052

Toshloq tumani 1 049

Dang'ara tumani 984

O'zbekiston tumani 962

Qo'shtepa tumani 922

Quva tumani 852

Farg'ona tumani 811

Quvasoy shahar 778

Buvayda tumani 757

Yozyovon tumani 690

Beshariq tumani 599

Bag'dod tumani 516



Rishton tumani 445

Furqat tumani 442


So'x tumani 399

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.


Xususiy korxona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

## Hududlar kesimida


|                   |    |        |                    |    |       |
|-------------------|----|--------|--------------------|----|-------|
| Farg'ona shahar   | 41 | 4,1 %  | Marg'ilon shahar   | 11 | 2,7 % |
| Rishton tumani    | 37 | 10,5 % | Qo'qon shahar      | 9  | 3,7 % |
| Farg'ona tumani   | 35 | 8,0 %  | Quva tumani        | 8  | 2,2 % |
| Bag'dod tumani    | 26 | 6,5 %  | Beshariq tumani    | 7  | 3,0 % |
| So'x tumani       | 19 | 4,7 %  | Toshloq tumani     | 7  | 3,0 % |
| Oltiariq tumani   | 15 | 3,8 %  | Furqat tumani      | 3  | 2,0 % |
| Quvasoy shahar    | 15 | 8,0 %  | O'zbekiston tumani | 2  | 1,1 % |
| Qo'shtepa tumani  | 14 | 9,6 %  | Dang'ara tumani    | 2  | 1,3 % |
| Uchko'prik tumani | 13 | 4,1 %  | Yozyovon tumani    | 2  | 1,3 % |
| Buvayda tumani    | 12 | 3,2 %  |                    |    |       |

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo 43,7 foiz, sanoat 18,4 foiz, yashash va ovqatlanish 8,9 foiz, qurilish 5,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 4,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 3,4 foiz, axborot va aloqa 1,8 foiz, tashish va saqlash 1,5 foiz, boshqa turlar 12,1 foiz.


## Hududlar kesimida

|                   |       |
|-------------------|-------|
| Farg'ona shahar   | 1 008 |
| Farg'ona tumani   | 437   |
| So'x tumani       | 406   |
| Marg'ilon shahar  | 404   |
| Bag'dod tumani    | 402   |
| Oltiariq tumani   | 393   |
| Quva tumani       | 372   |
| Buvayda tumani    | 370   |
| Rishton tumani    | 352   |
| Uchko'prik tumani | 320   |

|                    |     |
|--------------------|-----|
| Qo'qon shahar      | 243 |
| Toshloq tumani     | 235 |
| Beshariq tumani    | 232 |
| Quvasoy shahar     | 188 |
| O'zbekiston tumani | 183 |
| Dang'ara tumani    | 157 |
| Furqat tumani      | 151 |
| Yozyovon tumani    | 151 |
| Qo'shtepa tumani   | 146 |

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

|                    |    |        |                   |    |        |
|--------------------|----|--------|-------------------|----|--------|
| Rishton tumani     | 60 | 12,1 % | Quva tumani       | 23 | 16,2 % |
| Oltiariq tumani    | 46 | 10,4 % | Furqat tumani     | 22 | 11,1 % |
| Bag'dod tumani     | 44 | 17,1 % | Qo'qon shahar     | 19 | 6,8 %  |
| O'zbekiston tumani | 37 | 13,1 % | Uchko'prik tumani | 18 | 8,3 %  |
| Farg'ona shahar    | 34 | 7,3 %  | Beshariq tumani   | 16 | 8,2 %  |
| Farg'ona tumani    | 29 | 14,5 % | Dang'ara tumani   | 15 | 5,7 %  |
| So'x tumani        | 28 | 19,7 % | Qo'shtepa tumani  | 13 | 9,4 %  |
| Marg'ilon shahar   | 27 | 11,1 % | Buvayda tumani    | 8  | 5,3 %  |
| Toshloq tumani     | 24 | 14,3 % | Yozyovon tumani   | 6  | 9,2 %  |
| Quvasoy shahar     | 24 | 10,7 % |                   |    |        |


2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni so'ngi besh yilda 659 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda – 811 tadan 1 635 taga (o'sish 824 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 529 tadan 689 taga (o'sish 160 ta) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida


|                    |     |                  |     |
|--------------------|-----|------------------|-----|
| Rishton tumani     | 496 | Farg'ona tumani  | 200 |
| Farg'ona shahar    | 466 | Furqat tumani    | 198 |
| Oltiariq tumani    | 443 | Beshariq tumani  | 196 |
| O'zbekiston tumani | 282 | Toshloq tumani   | 168 |
| Qo'qon shahar      | 279 | Buvayda tumani   | 151 |
| Dang'ara tumani    | 264 | So'x tumani      | 142 |
| Bag'dod tumani     | 258 | Quva tumani      | 142 |
| Marg'ilon shahar   | 244 | Qo'shtepa tumani | 138 |
| Quvasoy shahar     | 225 | Yozyovon tumani  | 65  |
| Uchko'prik tumani  | 218 |                  |     |

## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot


2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


### Hududlar kesimida

|                   |    |                    |   |
|-------------------|----|--------------------|---|
| Farg'ona shahar   | 21 | Farg'ona tumani    | 3 |
| Qo'qon shahar     | 11 | Marg'ilon shahar   | 3 |
| Quvasoy shahar    | 6  | O'zbekiston tumani | 2 |
| Uchko'prik tumani | 5  | Qo'shtepa tumani   | 1 |
| Oltiariq tumani   | 3  | Beshariq tumani    | 1 |
| Bag'dod tumani    | 3  | Rishton tumani     | 1 |
| Buvayda tumani    | 3  |                    |   |


2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 foizni tashkil etdi.

Yetakchi o'rinni 109 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,2 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Farg'ona viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Janubiy Koreya (ulushi 5,7 foiz), Qirg'iston (ulushi 5,1 foiz), Tojikiston (ulushi 3,4 foiz) va Qozog'iston (ulushi 1,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

|                    |     |
|--------------------|-----|
| Farg'ona shahar    | 153 |
| Qo'qon shahar      | 60  |
| Quvasoy shahar     | 33  |
| Uchko'prik tumani  | 29  |
| Marg'ilon shahar   | 27  |
| Farg'ona tumani    | 19  |
| O'zbekiston tumani | 19  |
| Oltiariq tumani    | 18  |
| Beshariq tumani    | 18  |
| Bag'dod tumani     | 16  |

|                  |    |
|------------------|----|
| Dang'ara tumani  | 15 |
| Quva tumani      | 14 |
| Buvayda tumani   | 9  |
| Toshloq tumani   | 9  |
| Furqat tumani    | 9  |
| Rishton tumani   | 8  |
| So'x tumani      | 6  |
| Qo'shtepa tumani | 4  |
| Yozyovon tumani  | 4  |

2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 222 tasi qo'shma korxonalar, 248 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda


xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar



2024-yil 1-iyul holatiga chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 470 ta korxonalardan 222 tasi qo'shma korxonalar, 248 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshiriyulotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatiyulotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- dekabrda "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
va tizimli xizmat  
koʻrsatish boʻlimi  
Tel.:(73) 244-96-46